

**FOROBIY TA'LIMOTIDA INSONIY FAZILATLARNING TASNIFI:
TUG'MA VA ORTTIRILGAN FAZILATLAR DIALEKTIKASI HAMDA
ZAMONAVIY TA'LIM JARAYONIDAGI TATBIQI**

**CLASSIFICATION OF HUMAN VIRTUES IN AL-FARABI'S DOCTRINE:
THE DIALECTICS OF INNATE AND ACQUIRED VIRTUES AND THEIR
APPLICATION IN THE MODERN EDUCATIONAL PROCESS**

Djurayeva Dilfuza Raxmonovna
Osiyo xalqaro universiteti magistri
djurayevadilfuza@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abu Nasr Forobiyning insoniy fazilatlar haqidagi tasnifi falsafiy va pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Shuningdek, tug'ma fazilatlar bilan orttirilgan fazilatlar o'rtasidagi dialektik munosabatga bag'ishlanadi. Maqolada Forobiy asarlaridan to'g'ridan-to'g'ri keltirilgan dalillar asosida ushbu fazilatlar o'rtasidagi chegaralanganlik, o'zaro to'ldirish va ta'lim-tarbiya orqali rivojlanish masalalari ilmiy asosda ochib beriladi. Xulosada mazkur dialektikaning zamonaviy kompetensiyaviy ta'lim tizimi bilan metodologik uyg'unligi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: Abu Nasr Forobiy, insoniy fazilatlar tasnifi, tug'ma fazilatlar, orttirilgan fazilatlar, dialektik yondashuv, kompetensiyaviy ta'lim, pedagogik falsafa.

Keywords: Abu Nasr al-Farabi, classification of human virtues, innate virtues, acquired virtues, dialectical approach, competency-based education, educational philosophy.

I. KIRISH (Introduction)

O'rta asr Sharq falsafasining buyuk namoyandasi Abu Nasr Forobiy (873–950) nafaqat qomusiy olim, balki pedagogik tafakkur tarixida o'chmas iz qoldirgan mutafakkir sifatida ham e'tirof etiladi. Uning asarlarida inson tabiatiga, fazilatlarining kelib chiqishi va rivojlanishiga oid chuqur falsafiy mulohazalar mavjud bo'lib, bu mulohazalar zamonaviy pedagogik psixologiya va ta'lim nazariyasi bilan uyg'unlik kasb etmoqda.

Alloma «Fozil odamlar shahri», «Baxt-saodatga erishuv haqida», «Aql to'g'risida» kabi asarlarida insoniy fazilatlarini tug'ma va orttirilgan turlarga ajratib, ular o'rtasidagi murakkab dialektik munosabatni ochib bergan. Ammo adabiyotlar ko'rib chiqilganda, shu paytgacha maqolalarda bu mavzu ko'proq umumiy pedagogik-axloqiy kontekstda qo'llanilgani, fazilatlarining ta'lim-tarbiya jarayoni orqali o'zgarishi masalasi esa alohida tahlil ob'yekti sifatida yoritilmaganligiga ishonch hosil qilindi.¹

¹Abu Nasr Forobiy. Baxt-saodatga erishuv haqida. Risolalar. – Toshkent: Fan, 1975. – B. 104.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, O‘zbekistonning zamonaviy ta’lim tizimida «barkamol shaxs» va «kompetensiyaviy yondashuv» konsepsiyalari tobora ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu konsepsiyalarning tarixiy va falsafiy ildizlarini Forobiy merosida izlash — faqat ma’naviy emas, balki metodologik jihatdan ham zaruriy vazifa hisoblanadi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi Forobiyning fazilatlar tasnifi ichidagi dialektikani ochib berish va bugungi ta’lim amaliyotidagi tatbiqini asoslashdan iborat.

II. METODOLOGIYA (Methodology)

Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy metod, tarixiylik va mantiqiylik birligi tamoyili hamda geneologik yondashuv asosiy metod sifatida qo‘llanildi. Forobiyning «Baxt-saodatga erishuv haqida», «Fozil odamlar shahri», «Aql to‘g‘risida» va «Ilmlar va san‘atlar fazilati» kabi birlamchi manbalari, shuningdek M.M.Xayrullayev, J.K.Yusubov, Shamas Malik Naoji kabi olimlarning tadqiqotlari asosiy adabiy manba sifatida foydalanildi.

Fazilatlar tasnifini tahlil etishda Forobiyning matni bilan Aristotelning «Nikomaxova etikasi» qiyoslandi, chunki Forobiy o‘z ta’limotini Arastu ta’limotini o‘zlashtirish va Sharq tafakkuri bilan sintez qilish asosida shakllantirgan.²

Zamonaviy ta’lim nazariyalari bilan uyg‘unligini aniqlashda «kompetensiyaviy yondashuv», «shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim» va «konstruktivistik nazariya» nuqtai nazaridan tahlil o‘tkazildi. Bu yondashuv Forobiy merosini faqat tarixiy hujjat sifatida emas, balki bugungi pedagogik amaliyotga tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan falsafiy tizim sifatida baholash imkonini berdi.

III. NATIJALAR VA MUHOKAMA (Results and Discussion)

3.1. Forobiy fazilatlar tasnifining tarkibiy tuzilishi

Forobiy asarlarida insoniy fazilatlar to‘rt asosiy turga tasniflanadi: nazariy (aqliy) fazilatlar, fikriy (tafakkur) fazilatlar, yaralma (tabiiy-tug‘ma) fazilatlar va amaliy san‘at (kasbiy) fazilatlar.³ Bu to‘rt kategoriya bir-biri bilan iyerarxik emas, balki dialektik munosabatda bo‘lib, har biri boshqalarini to‘ldiradi va ularga asos bo‘ladi.

Forobiy nazariy fazilatlar haqida shunday deydi: «Nazariy bilimlardan hosil qilinadigan tushunchalar uzoq va chuqur tushunish, tekshiruv, kashf va ijod qilish, ta’lim olish hamda boshqalarga ta’lim berish yo‘li bilan qo‘lga kiritiladi.»⁴ Ushbu ta’rifdan ko‘rinadiki, nazariy fazilatlar tug‘ma emas — ular izlanish, ta’lim va ijod orqali shakllanadi. Bu zamonaviy pedagogikadagi «bilim konstruksiya qilinadi, tayyor holda berilmaydi» degan konstruktivistik tamoyil bilan to‘la mos keladi.

3.2. Tug‘ma va orttirilgan fazilatlar dialektikasi

Forobiy ta’limotining o‘zagi shundaki, u fazilatlarini qat’iy ikki qutbga — «tug‘ma» va «orttirilgan» deb ajratmaydi. Aksincha, u ular o‘rtasida murakkab

²Аристотель. Никомахова этика. Сочинения. Том 4. – Москва: Мысль, 1983. – С. 173.

³Хайруллаев М. Forobiy ruhiy protsesslar va ta’lim-tarbiya to‘g‘risida. – Toshkent: O‘qituvchi, 1967. – B. 45.

⁴Forobiy. Risolalar. – Toshkent: Fan, 1975. – B. 101.

dialektikani ko‘radi. Mutafakkirning fikricha: «Insonning kasb-hunar va san‘atdagi fazilati tug‘ma emasdir, aks holda uning fikriy fazilatida mutlaqo kuch va ulug‘lik bo‘lmas edi.»⁵

Bu fikrning mohiyati quyidagicha ochib beriladi: agar kasbiy mahorat va axloqiy fazilatlar tug‘ma bo‘lganda, ularni egallash uchun tafakkur zarur bo‘lmas edi. Demak, ularning tug‘ma emasligi — fikrlash qudratini rag‘batlantiruvchi asosiy omil. Bu holat pedagogik nuqtai nazardan muhim: ta‘lim-tarbiyaning mazmuni aynan tug‘ma bo‘lmagan, lekin rivojlanishi mumkin bo‘lgan qobiliyatlarni yuzaga chiqarishga qaratilmog‘i lozim.

Shu bilan birga, Forobiy tug‘ma fazilatlarining ham ahamiyatini inkor etmaydi. U tug‘ma fazilat va fikriy fazilat o‘rtasidagi bog‘liqlik haqida shunday yozadi: «Quvvati jihatidan eng kuchli bo‘lgan fikriy fazilat bilan kuchli tug‘ma fazilat bir-biridan ajralmaydi.» Bu fikrda dialektikaning mohiyati yaqqol ko‘rinadi: tug‘ma salohiyat va ta‘lim-tarbiya mahsuli bo‘lgan fazilat bir-birini zid sifatida emas, balki o‘zaro shart-sharoit sifatida anglatiladi.

Xayrullayev M.M. ushbu dialektikani quyidagicha izohlaydi: Forobiy tug‘ma qobiliyatni faqat potentsial imkoniyat sifatida ko‘rib, uni ta‘lim-tarbiya, mashq va ijtimoiy muhit orqali faollashishi mumkin bo‘lgan kuch sifatida talqin etadi.⁶ Bu yondashuv hozirgi psixologiyadagi «proximal development zone» (Vygotsky) kontsepsiyasiga o‘xshash tarzda fazilatlar rivojlanishidagi «imkoniyat-aktual» munosabatni ochib beradi.

3.3. Ta‘lim va tarbiyaning fazilatlar shakllanishidagi vazifasi

Forobiy ta‘lim va tarbiyaning har birini o‘z funksiyasi bilan ajratib belgilaydi. Ta‘lim — nazariy fazilatlarini shakllantiruvchi jarayon, tarbiya esa — amaliy va axloqiy fazilatlarini hayotiy tajriba orqali singdiruvchi jarayon.⁷ Bu farqlanish zamonaviy pedagogikadagi «bilimlar» va «kompetensiyalar» o‘rtasidagi farqqa o‘xshaydi: bilim uzatiladi, kompetensiya esa qo‘llaniladi.

Ayniqsa diqqatga sazovor jihat shundaki, Forobiy tarbiyaning ikki usulini belgilaydi: birinchi usul — muloyimlik va rag‘batlantirish asosida tarbiyalash; ikkinchi usul — qat‘iy talab va majburiyat asosida. Alloma birinchi usulni ixtiyoriy ravishda o‘rganishga moyil kishilarga, ikkinchisini esa qaysar yoki tartibsiz guruhlariga qo‘llashni tavsiya etadi. Bu ikki usulning mujassami zamonaviy pedagogikada ham «intrinsik motivatsiya» va «ekstrinsik motivatsiya» deb nomlanadi. Forobiy ularni bir-biriga qarama-qarshi emas, balki vaziyatga ko‘ra tanlanadigan pedagogik vositalar sifatida ko‘radi.

Forobiy inson amaliy fazilatlarini qanday orttirishi haqida ham aniq yo‘l

⁵ Аль-Фараби. Философские трактаты. – Алма-Ата: Наука, 1972. – С. 78–79.

⁶ Хайруллаев М.М. Форобий. – Ташкент, 1975. – В. 302–303.

⁷ Qurbonova O‘.U. Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri» asarida ta‘lim-tarbiya masalalari // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. – 2018. – №2(70). – В. 259.

belgilaydi: «Agar insonlar shu kasb-hunarga qiziqsalar va bu qiziqish ularni butunlay ushbu faoliyatga jalb etsa, demak, ular kasb-hunarning chinakam oshig'iga aylanishadi.»⁸ Bu iborada ichki motivatsiyani fazilatlar shakllanishining asosi sifatida ko'rish — zamonaviy ta'lim psixologiyasining Deci va Ryan tomonidan ishlab chiqilgan «o'z-o'zini belgilash nazariyasi» bilan bevosita hamohang.

3.4. Zamonaviy ta'lim nazariyalari bilan qiyosiy tahlil

Forobiyning fazilatlar dialektikasini zamonaviy ta'lim paradigmalari bilan qiyoslash bir qancha muhim uyg'unlik nuqtalarini ko'rsatadi. Birinchidan, kompetensiyaviy yondashuv: zamonaviy ta'limda kompetensiya tug'ma emas, balki o'qitish jarayonida shakllanadi deb qaraladi. Bu Forobiyning «amaliy fazilatlar tug'ma emas, odat orqali egallanadi» degan ta'rifi bilan to'g'ridan-to'g'ri mos keladi.⁹

Ikkinchidan, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim: Forobiy har bir shaxsning tug'ma salohiyati turlicha ekanini ta'kidlaydi va ta'lim usulini ana shu salohiyatga moslashtirishni tavsiya etadi. Bu g'oya hozirgi ta'limdagi individual learning va differentiated instruction tamoyillari bilan hamohangdir.

Uchinchidan, axloqiy intellekt: Forobiy fazilatlarini faqat bilimga emas, balki bilim va axloqning uyg'unligiga asoslanuvchi tizim sifatida ko'radi.¹⁰ Zamonaviy pedagog D.Goleman ishlab chiqqan emotsional va axloqiy intellekt kontseptsiyasi ham aynan shu uyg'unlikni markazga qo'yadi.

IV. XULOSA (Conclusion)

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Forobiyning insoniy fazilatlar tasnifi — bu shunchaki ro'yxat emas, balki insonning axloqiy va intellektual rivojlanishini tushuntiruvchi chuqur dialektik tizimdir. Tug'ma salohiyat bilan orttirilgan fazilatning munosabati Forobiyda ziddiyat sifatida emas, balki o'zaro zaruriy shart-sharoit sifatida talqin etiladi: tug'ma imkoniyat bo'lmasa, fazilatni shakllantirish uchun asos yo'q; ta'lim-tarbiya bo'lmasa, tug'ma imkoniyat so'nib qoladi.

Ushbu dialektikaning zamonaviy ta'lim uchun amaliy ahamiyati quyidagida: ta'lim tizimi har bir o'quvchining tug'ma salohiyatini inobatga olib, uni orttirilgan fazilatlar sari yo'naltiruvchi individual yondashuv asosida qurilishi zarur. Bu Forobiyning asrlar ilgari qo'ygan pedagogik talabi hozirgi yangi O'zbekiston ta'lim islohotlarida ham o'z metodologik asosini topmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abu Nasr Forobiy. Baxt-saodatga erishuv haqida. Risolalar. – Toshkent: Fan, 1975. – B. 104.

⁸Forobiy. Ilmlar va san'atlar fazilati risolasidan // Risolalar. – Toshkent: Fan, 1975. – B. 133.

⁹Muxtarov O'.M., Ergashev D.M. Abu Nasr Forobiyning ma'naviy merosi (Oliy ta'lim muassasalari uchun uslubiy qo'llanma). – Toshkent: «Ilm-Ziyo-Zakovat» nashriyoti, 2022. – B. 67.

¹⁰Шамас Малик Наоджи. Философия образования аль-Фараби. Диссертация. – Монреаль: Университет Макгилла, 1989. – С. 45.

2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – B. 244–245.
3. Forobiy. Risolalar. – Toshkent: Fan, 1975. – B. 101.
4. Xayrullayev M. Forobiy ruhiy protsesslar va ta’lim-tarbiya to’g’risida. – Toshkent: O’qituvchi, 1967.
5. Xayrullayev M.M. Forobiy. – Toshkent, 1975. – B. 302–303.
6. Qurbonova O’.U. Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri» asarida ta’lim-tarbiya masalalari // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. – 2018. – №2(70). – B. 259.
7. Muxtarov O’.M., Ergashev D.M. Abu Nasr Forobiyning ma’naviy merosi. – Toshkent: «Ilm-Ziyo-Zakovat» nashriyoti, 2022.
8. Аль-Фараби. Философские трактаты. – Алма-Ата: Наука, 1972. – С. 78–79.
9. Аристотель. Никомахова этика. Сочинения. Том 4. – Москва: Мысль, 1983. – С. 173.
10. Mirziyoyev Sh.M. O’qituvchi va murabbiylar – yangi O’zbekistonni barpo etishda katta kuch // «Xalq so’zi». – 2020. – 1 oktyabr.
11. Shamas Malik Naoji. Al-Farabi's Philosophy of Education. A Thesis. – McGill University, Montreal, 1989.
12. Yusubov J.K. Abu Nasr Forobiy ma’naviy-axloqiy ta’limotining Sharq va G’arb madaniy sivilizatsiyasiga ta’siri. – Toshkent: «Lesson Press» nashriyoti, 2023.